O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
direktorining birinchi o‘rinbosari
D.Saidjanovga

Osiyo texnologiyalar universitetidan

A R I Z A

O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy axborot va kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko‘rsatishning ayrim ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 19-dekabrdagi 1017-son qaroriga muvofiq, Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy kengashining 2026-yil “29” sentabrdagi 2-son qaroriga asosan “Sayqal” ilmiy-amaliy elektron jurnalini ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishingizni so‘raymiz.

“Sayqal” ilmiy-amaliy elektron jurnali Osiyo texnologiyalar universitetining muassisligida elektron shaklda nashr etiladi.

1. OAVning muassisi:	**Osiyo texnologiyalar universiteti,** Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Jayhun ko‘chasi, 17-B uy Telefon: +998 55 404 11 66 E-mail: info@asianuniversity.uz Rasmiy sayt: https://asianuniversity.uz/
2. OAV turi:	– elektron nashr (ilmiy-amaliy elektron jurnal)
3. Nomi:	– **«Sayqal»** ilmiy-amaliy elektron jurnali (lotin va kirill imlosida); ingliz tilida – «Sayqal Scientific Journal»
4. ISSN:	– 2992-9077
5. Tili:	– o‘zbek, rus, ingliz
6. Veb-sayt manzili:	– https://sayqal.asianuniversity.uz
7. Jurnal e-pochtasi:	– info@sayqal.uz

Jurnalning maqsad va vazifalari: «Sayqal» ilmiy-amaliy elektron jurnali ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, mamlakatimiz va xorijiy olimlar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda amaliyotchilarning ilmiy-tadqiqot natijalarini keng ilmiy jamoatchilikka yetkazishni maqsad qiladi. Jurnalning vazifasi – mintaqa olimlarining tadqiqotlarini xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ochiq, tekshiriladigan va iqtibos keltiriladigan qilish, yosh tadqiqotchilar uchun sifatli taqriz madaniyatini shakllantirish hamda jurnalni xalqaro indekslash bazalariga kiritishdan iborat. Jurnalda iqtisodiyot, pedagogika, psixologiya,

texnika, axborot texnologiyalari, filologiya, tarix, falsafa fanlari bo‘yicha original ilmiy-tadqiqot va sharh (obzor) maqolalari ikki tomonlama yopiq taqrizdan so‘ng ochiq kirish (Open Access) asosida chop etiladi.

Ixtisoslashuvi – ilmiy-amaliy internet nashri.

Tarqatilish hududi – Internet tarmog‘ida (O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar).

Davriyligi – yiliga 4 marta (mart, iyun, sentabr va dekabr oylarida).

Hajmi – 1 ta maqolaning hajmi adabiyotlar ro‘yxati bilan birga 8–16 bet (Times New Roman, 12 shrift, 1,5 interval).

Moliyalashtirish manbalari – muassis mablag‘lari, ilmiy maqolalarni nashr qilish bilan bog‘liq xizmatlardan tushadigan tushumlar, homiylik mablag‘lari, reklama va e’lonlardan tushadigan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Tahririyat manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Jayhun ko‘chasi, 17-B uy.

Telefon: +998 55 404 11 66. **E-mail:** sayqal@asianuniversity.uz

Veb-sayt: https://sayqal.asianuniversity.uz

Tahririyat to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar: tahririyat ish joyi, kompyuter texnikasi, printer, skaner, raqamli fotoapparat, diktofon va boshqa zarur jihozlarga ega. Tahririyat xodimlari shtatlar jadvaliga muvofiq shakllantirilgan.

Ilova: 1. Ilmiy kengash qarori – 2 varaq. 2. «Sayqal» ilmiy-amaliy elektron jurnali Nizomi – 10 varaq. 3. Tahrir hay’ati tarkibi – 1 varaq.

Muassis: Osiyo texnologiyalar universiteti
Ijrochi rektor **E.X.Ibragimov**

2026-yil “02” noyabr